
RASMIY MUNOSABAT

"Ibn Sino" mahalla fuqarolar yig'ini Yangi asr ko'chasi 190-uy 71-xonadonda yashovchi Oqilaxon Rustamovaning murojaati yuzasidan quydagilarni ma'lum qilamiz.

Oqilaxon Rustamova yuqoridagi manzilda 5 nafar farzandi bilan birga yashaydi. Uning murojaati shahar hokimligi, Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining Farg'ona shahar bo'limi va mahalla fuqarolar yig'ini mas'ullari ishtirokida o'rganildi.

O'rganish jarayonida fuqaroning Kimyogarlar ko'chasi 6-uyda joylashgan ko'chmas mulkka sarf etilgan mablag'larini qaytarib olish bo'yicha qilgan murojaati ko'rib chiqildi. Mazkur holat yuzasidan fuqaroga huquqiy tushuntirish berildi va ayni damda sud-huquq masalasida amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Ishchi guruhi a'zolarining yakuniy xulosalari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati
2023-03-24 16:57:21